O‘rinova. F.O‘.
Farg’ona davlat universiteti, maktabgacha ta’lim kafedrasi professori, p.f.n
Saydullayeva.G.U.
Maktabgacha ta’lim kafedrasi magistranti

MAKTABGACHA TA’LIM FAOLIYATIDA INKLYUZIV TA’LIM

Annotatsiya*: Respublikamizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, maktabgacha ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish, mazkur tizimni inklyuziv kompetentlikka, raqobatbardosh mutaxassislar bilan ta’minlash, inklyuziv ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish sohasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim jarayonida inklyziv ta’limning o‘rni va ahamiyati kabi masalalar yoritilgan.*

Аннотация*: В нашей республике проводится масштабная работа по развитию инклюзивного образования, эффективной организации дошкольного образования, оснащению этой системы инклюзивными компетентностями и конкурентоспособными специалистами, совершенствованию инклюзивных образовательных технологий. В данной статье описаны роль и значение инклюзивного образования в процессе дошкольного образования..*

Abstract*: Extensive work is being carried out in our republic to develop inclusive education, effectively organize preschool education, equip this system with inclusive competence and competitive specialists, and improve inclusive education technologies. This article covers issues such as the role and importance of inclusive education in the preschool education process..*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan bolalar, inklyuziv ta’lim, inklyuziv kompetentlik, variativ, akmeologik, aksiologik, ontologik.*

Ключевые слова*: дети, нуждающиеся в социальной защите, дети с ограниченными возможностями здоровья, инклюзивное образование, инклюзивная компетентность, вариационный, акмеологический, аксиологический, онтологический.*

Keywords*: children in need of social protection, children with disabilities, inclusive education, inclusive competence, variational, acmeological, axiological, ontological.*

Dunyoda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, inklyuziv ta’lim makonini yaratish, uzluksiz ta’lim tizimida kadrlarni inklyuziv ta’lim muhitida faoliyat ko‘rsatishga kasbiy tayyorlash muhim strategik vazifalardan biri bo‘lib, ta’lim kontekstida mavjud an’analarni saqlash va o‘tkazish, istiqbolli innovatsiya sifatida uni amalga oshirish ehtiyoji mavjud. Bo‘lajak tarbiyachilarning inklyuziv ta’lim makonida faoliyat ko‘rsatishga qodir raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirish, kasbiy faoliyatga tayyorlash, zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.


Respublikamizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, maktabgacha ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish, mazkur tizimni inklyuziv kompetentlikka, raqobatbardosh mutaxassislar bilan

ta’minlash, inklyuziv ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish sohasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. SHu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’limni uzluksiz amalga oshirish, bo‘lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta’lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik asoslarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ta’limni modernizatsiyalash sharoitlarida asosiy yo‘nalishlardan biri alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga maktabgacha ta’lim tashkilotidan boshlab, oliy ta’lim muassasasigacha uzluksiz ta’lim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratish bilan bog‘liq. Mazkur muammoning amaliy echimi– bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining inklyuziv ta’lim sharoitidagifaoliyatga kasbiy tayyorlash hisoblanadi.

Inklyuziv ta’limni rivojlantirishning qadriyatli shart-sharoitlari sifatida shaxsni insonparvarlik ruhida tarbiyalash g‘oyalari va insonda tolerantlik munosabatlarini tarkib toptirishga tayanamiz.

Ayni vaqtda pedagog, tadqiqotchilar oliy ta’limda pedagogik kadrlarni kasbiy tayyorlashni tashkil etish jarayonini ko‘rib chiqish imkonini beruvchi klassik yondashuvlarga tayanadilar. Ular orasida biz kompetentli, poli-paradigmal, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli, variativ, akmeologik, aksiologik, ontologik, tizimli, antropologik, hodisali, fanlararo, ijtimoiy-madaniy, madaniy, kontekstli va boshqalarni ajratib oldik (1-rasmga qarang).



1-rasm. Bo‘lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta’lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar tasnifi

Ma’lumki bugungi kunda maktabgacha ta’lim taskilotida ish beruvchi xodimdan quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lish talab etiladi:

barcha tarbiyalanuvchilarni, shu jumladan, maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni: zehni o‘tkir bolalar; ona tilisi o‘zbek tili bo‘lmagan tarbiyalanuvchilar; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bilan ishlashda maxsus yondashuvlardan, metodikalardan foydalanish hamda uni siovdan o‘tkazishni;

turli toifadagi tarbiyalanuvchilar: iqtidorli bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, etim

bolalar, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar (autistik spektirida buzilishlari bo‘lgan, diqqat tanqisligi sindromi va giperfaollikka ega bo‘lgan bolalar va boshqalar), sog‘lig‘i jihatidan imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash uchun zarur bo‘lgan inklyuziv pedagogik-psixologik texnologiyalarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanishni;

guruhda ijobiy psixologik muhitni va bolalar, shu jumladan, turli xil milliy-madaniy, diniy jamiyatlar va ijtimoiy qatlamlar, shuningdek alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan (shu jumladan, imkoniyati cheklangan) bolalar o‘rtasida xayrixoh munosabatlar uchun sharoitlar yaratishni;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitishning maxsus korreksion usullaridan foydalanishni.

Pedagogik-psixologik adabiyotlarda muammoning yoritilishi ayniqsa ta’lim falsafasida - tenglik falsafasi va chidamlilik, yutuq va natijalar, rivojlantirish va ijtimoiylashtirish – bir necha pedagogik qarashlar mavjud bo‘lib,bundagi ijtimoiy rollar - tarbiyachi (o‘qituvchi, oliy ta’lim o‘qituvchisi) quyidagi funksiyalarni amalga oshirishga qaratiladi:

1) bag‘rikeng tarbiyachi – faol inklyuziv ta’lim falsafasi tarafdori, tenglik, bag‘rikenglik, qabul qilish g‘oyalari himoyachisi;

2) fasilitator – axloqiy harakatlarda namoyon bo‘ladigan ijobiy his-tuyg‘ularni faollashtiradi;

3) maslahatchi, o‘zaro hamkorlik tashkilotchisi – ham guruh ichida, ham guruh bilan atrof-muhit orasida;


4) ekspert – guruh ichidagi o‘zaro ta’sirning xususiyatlari va natijalarini batafsil tahlil qiladi;

5) bevosita ochiq muvofiqlashtiruvchi koordinator– o‘z maqomida guruhning o‘zaro ta’sirida ishtirok etadi, ishni boshqaradi, hamkorlik asosida ishning individual bosqichlarini tashkil qiladi, boshqalarning o‘ziga xos xususiyatlarni qabul qiladi;

6) yashirin muvofiqlashtiruvchi koordinator - guruhning to‘liq a’zosi ularni oshkor qilmaydigan o‘zaro ta’sirlar tarbiyachining maqomi, etakchilik va kasbiy sifatlari ustunlik qiladi;

7) rahbar – ayniqsa guruhga ta’sir etishmasalalarida guruh bilan hamkorlikni rejalashtirish.

Inklyuziv muhit o‘zining qarama-qarshi va shu bilan birga o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatlari, ochiqligi, o‘zgarishlarga moyilligi bilan inklyuziv ta’limga nisbatan tizimli yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Adabiyotlar, manbalar, tadqiqotlar tahlili asosida inklyuziv ta’lim muhiti *ochiqlik, variativlik, safarbarlik, moslashuvchanlik* tamoyillar asosida tashkil etilishi zarurligi to‘g‘risidagi xulosaga keldik (2-rasmga qarang).



2-rasm. Inklyuziv ta’lim muhiti tamoyillari

Inklyuziv ta’lim ehtiyoji talablariga tor doira va keng ma’nodagi inklyuziv ta’lim imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beruvchi ochiqlik, variativlik, safarbarlik, moslashuvchanlik tamoyillari asosida loyihalashtirish javob bera oladi.Mazkur bobda ilmiy adabiyotlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili asosida tadqiqot muammosiga oid tayanch tushunchalarning mualliflik yondashuvi ifodalandi.

Pedagogik loyihalashtirish – bu ommaviy foydalanishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimning innovatsion modelini nazarda tutuvchi loyihani yaratish bo‘yicha bo‘lajak tarbiyachilarning maqsadli faoliyatidir.

Inklyuziv ta’lim muhiti – bu tarbiyalanuvchilarning maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlari talablariga javob bera oladigan vositalar orqali ta’lim jarayoni sub’ektlarini samarali shaxslararo munosabatlarga jalb etuvchi ochiqlik, xavfsizlik, tolerantlik, do‘stona munosabatlar, variativlik, mobillik, moslashuvchanlik kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan pedagogik jarayonda bolaga yo‘naltirilgan yondashuv, inklyuziv ta’lim tamoyillari joriy etilgan ta’lim muassasasi muhiti hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim texnologiyasi– bu uzluksiz ta’lim tizimida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar va yoshlar uchun shaxsga yo‘naltirilgan tizimli yondashuv asosida individual, ijtimoiy moslashuv prinsiplariga tayangan holda maxsus o‘quv dasturlari, materiallari, uslubiy vositalari va metodlari yordamida ta’lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik jihatlari zamonaviy talablarga mos olib boriladigan jarayondir.

Inklyuziv kompetentlik - inklyuziv amaliyotni joriy etishga yordam beruvchi, samarali

kasbiy faoliyatni ta’minlovchi shaxsiy-integrativ ta’lim mahsuli. Inklyuziv kompetentlik turi esa bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida, ya’ni inklyuziv ta’lim muhitida faoliyatni boshlashdan avval oliy ta’lim jarayonida shakllantirilishi zarur.

Inklyuziv kompetentlikni shakllantirish uchun pedagog quyidagi muhim sifatlarga ega bo‘lishi lozim: empatiya, refleksiya, mobillik va moslashuvchanlik, hamkorlik qobiliyati, tarbiyalanuvchilar ehtiyojlariga nisbatan senzitivlik, kommunikativlik, o‘z-o‘zini boshqara olish ko‘nikmasi va boshqalar.

Biz inklyuziv kompetentlik asosiy turlariga quyidagilarni kiritamiz:

- inklyuziv ta’lim sharoitlarida nogironligi bor hamda sog‘lig‘i jihatidan imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash masalalariga taalluqli me’yoriy-huquqiy bilimlar bazasini o‘rganish va zaruratini tushunish;

– ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘maklashish ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni hamda ularning oila a’zolarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash usullari va metodlaridan foydalanish;

– istisnosiz barcha bolalarning ta’limi va tarbiyasida maxsus va yangicha yondashuvlardan foydalanish;

– maxsus ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan barcha toifadagi bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga oluvchi inklyuziv ta’lim muhitini loyihalashtirish.

Xulosa qilib qytganda, inklyuziv ta’lim muhitini loyihalashtirishga tayyorgarlik ta’lim mussasalarida inklyuziv amaliyot jarayonida faoliyat olib boruvchi pedagogning kasbiy tavsifi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-iyundagi 348-son qarori "Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizom".
2. Muminova, N. S. (2021). Inklyuziv ta’limni rivojlantirishda pedagogik-psixologik yondashuvlar. // *Ta’lim va rivojlanish jarayoni*, №2, 34–40-b.
3. Rasulova, D.M. (2020). Inklyuziv ta’lim jarayonida pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi. // *Pedagogik mahorat*, №4, 25–30-b.
4. Karimova, G.M. (2022). Maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni joriy etishning zamonaviy mexanizmlari. // *Farg‘ona davlat universiteti ilmiy axborotnomasi*, №1, 51–56-b.
5. Shodmonqulova, M.K. (2021). Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi. // *Ta’limda innovatsiyalar*, №3, 67–72-b.
6. Yusupova, S.A. (2022). Oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni tashkil etish metodikasi. // *Ilm va taraqqiyot yo‘lida*, №2, 42–47-b.